

SAMARQAND QOG‘OZI: TARIXI, TEXNOLOGIYASI VA JAHON SIVILIZATSIYASIDAGI O‘RNI

Toshpo‘latov Nurbek

SamISI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20759246>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand qog‘ozining paydo bo‘lish tarixi, uning ishlab chiqarish texnologiyasi, Buyuk Ipak yo‘li orqali keng tarqalishi hamda jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. VIII asrda Talas voqealaridan keyin qog‘oz tayyorlash texnologiyasining Markaziy Osiyoga kirib kelishi va Samarqandda takomillashtirilishi natijasida shahar Sharqning eng yirik qog‘oz ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylangani yoritiladi. Shuningdek, Samarqand qog‘ozining texnologik xususiyatlari, uning ilmiy qo‘lyozmalar, davlat hujjatlari va kitobat san‘ati rivojida o‘rni hamda bugungi kunda qadimiy an‘analarning qayta tiklanish jarayonlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Samarqand qog‘oz, Buyuk Ipak yo‘li, Talas jangi, qog‘ozsozlik, hunarmandchilik, Konigil, qo‘lyozmalar, kitobat, Markaziy Osiyo, madaniy meros.

Kirish: Samarqand qadim zamonlardan buyon nafaqat siyosiy va iqtisodiy markaz, balki ilm-fan, madaniyat va hunarmandchilik taraqqiyotining muhim maskanlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Ayniqsa, qog‘oz ishlab chiqarish sohasi shaharning xalqaro miqyosdagi obro‘sinini yanada oshirib, uni o‘rta asrlarda Sharqning eng yirik ilmiy markazlaridan biriga aylantirdi.¹ Qog‘oz insoniyat tarixidagi eng buyuk ixtirolardan biri bo‘lib, bilimlarni saqlash, tarqatish va avlodlarga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etdi. Agar qadimgi davrlarda papirus, pergament yoki sopol lavhalardan foydalanilgan bo‘lsa, Samarqandda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli qog‘oz ilmiy va madaniy taraqqiyot uchun yangi bosqichni boshlab berdi.² VIII–XIII asrlarda Samarqand qog‘oz nafaqat Movarounnahr, balki Bag‘dod, Damashq, Qohira, Hirot va boshqa yirik ilmiy markazlarga eksport qilinib, musulmon Sharqidagi ilmiy uyg‘onish jarayonlarining muhim omillaridan biriga aylandi.^[3]

Tarixiy manbalarga ko‘ra, qog‘oz tayyorlash texnologiyasi dastlab milodiy 105-yilda xitoylik saroy amaldori Tsay Lun tomonidan takomillashtirilgan. Uning usuli daraxt po‘stlog‘i, kanop, eski matolar va boshqa tolali mahsulotlardan foydalanishga asoslangan edi.^[4]

751-yilda Talas daryosi bo‘yida Arab xalifaligi qo‘shinlari va Tan imperiyasi o‘rtasida yuz bergan mashhur Talas jangidan so‘ng asirga olingan xitoylik ustalar orqali qog‘oz tayyorlash texnologiyasi Markaziy Osiyoga kirib kelganligi ko‘plab tarixiy manbalarda qayd etiladi.^[5]

Samarqand tabiiy-geografik sharoiti, serob suvlari, rivojlangan hunarmandchiligi va Buyuk Ipak yo‘lidagi strategik joylashuvi tufayli qisqa vaqt ichida qog‘oz ishlab chiqarishning yirik markaziga aylandi. Mahalliy ustalar xitoy texnologiyasini yanada takomillashtirib, o‘ziga xos yuqori sifatli Samarqand qog‘ozini yaratishga muvaffaq bo‘ldilar.⁶ Samarqand qog‘oz asosan tut daraxti po‘stlog‘i, zig‘ir tolalari, kanop va eski matolardan tayyorlangan. Oqartirish, maydalash va uzoq muddat suvda ivitish orqali maxsus massa hosil qilinardi. Hosil bo‘lgan massa yog‘och qoliplar yordamida yupqa qatlam shaklida ajratilib, tabiiy usulda quritilgan. Keyinchalik maxsus silliqlash jarayoni amalga oshirilib, qog‘ozning yuzasi marmar, chig‘anoq yoki boshqa silliq jismlar bilan sayqallangan. Natijada siyohni yaxshi singdiradigan, uzoq yillar saqlanadigan va nihoyatda mustahkam mahsulot yaratilgan.⁷ Samarqand ustalari ishlab chiqargan qog‘oz o‘zining oq rangi, silliqligi, mustahkamligi va uzoq muddat saqlanishi bilan boshqa hududlarda ishlab chiqarilgan qog‘ozlardan ajralib turgan. IX–XII asrlarda Samarqand Buyuk Ipak yo‘lining eng muhim iqtisodiy

markazlaridan biri bo'lib, bu yerda ishlab chiqarilgan qog'oz Sharq va G'arb mamlakatlariga keng eksport qilingan. Bag'doddagi "Bayt ul-hikma", Buxoro, Marv, Nishopur, Hirot va Damashqdagi ilmiy markazlarda foydalanilgan ko'plab qo'lyozmalar aynan Samarqand qog'ozida bitilgani tarixiy manbalarda uchraydi.⁸ Bu jarayon natijasida islom olamida kitobat madaniyati, kutubxonalar, ilmiy maktablar va tarjima harakati misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Ayniqsa, IX–XI asrlarda ilm-fan rivojining jadallashuvida sifatli qog'oz ishlab chiqarish muhim iqtisodiy omillardan biri bo'ldi. Temuriylar davrida Samarqand yana bir bor ilm-fan va kitobat markaziga aylandi. Mirzo Ulug'bek davrida yaratilgan ko'plab astronomik va matematik asarlar yuqori sifatli mahalliy qog'ozlarda ko'chirilganligi haqida tarixiy ma'lumotlar mavjud. XX asr oxiridan boshlab qadimiy Samarqand qog'ozini tayyorlash an'alarini qayta tiklash bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar boshlandi. Ayniqsa, Konigil qishlog'ida qadimiy texnologiyalar asosida qo'l mehnati yordamida qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda Samarqand qog'ozini nafaqat tarixiy-hunarmandchilik namunasi, balki milliy madaniy meros va turizmning muhim tarkibiy qismi sifatida ham e'tirof etilmoqda. Konigilda ishlab chiqarilayotgan qog'oz mahsulotlari xalqaro ko'rgazmalar va madaniy tadbirlarda O'zbekistonning tarixiy hunarmandchiligi ramzlaridan biri sifatida namoyish etilmoqda.¹⁰

Bundan tashqari, Samarqand qog'ozini UNESCOning nomoddiy madaniy merosini asrash tamoyillariga mos ravishda an'anaviy hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirish yo'nalishidagi muhim loyihalardan biri sifatida ham baholanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand qog'ozini Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining eng muhim moddiy va madaniy yutuqlaridan biridir. Uning yaratilishi va takomillashuvi nafaqat mahalliy hunarmandchilik rivojiga, balki butun islom olamining ilmiy taraqqiyoti, kitobat madaniyati va davlat boshqaruvi tizimining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Buyuk Ipak yo'li orqali Samarqand qog'ozining keng tarqalishi Sharq va G'arb o'rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarni mustahkamlab, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim o'rin egalladi. Bugungi kunda esa ushbu noyob hunarmandchilik an'alarini saqlash va rivojlantirish milliy madaniy merosni asrashning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, B. 45–52.
2. Bartold V.V. Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida. – Toshkent: Sharq, B. 67–74.
3. Bosworth C.E. The Historic Cities of the Islamic World. Leiden: Brill, pp. 213–226.
4. Bloom J.M. Paper Before Print: The History and Impact of Paper in the Islamic World. Yale University Press, 2001. pp. 38–64, 89–103.
5. Hunter D. Papermaking: The History and Technique of an Ancient Craft. New York, 1978. pp. 55–81.
6. Needham J. Science and Civilisation in China. Vol. 5. Cambridge University Press. pp. 122–145.
7. Hill D.R. Islamic Science and Engineering. Edinburgh University Press. pp. 156–170.
8. Rtveladze E.V. Civilizations, States and Cultures of Central Asia. – Toshkent. B. 184–196.
9. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Samarqand qog'ozini" maqolasi. – Toshkent. B. 612–614.
10. UNESCO va Markaziy Osiyo madaniy merosiga oid ilmiy nashrlar hamda Samarqand qog'ozini bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar. pp. 75–88.